



## **PEDAGOK KADRLAR TAYORLASHDA CHET TILINI O'QITISH VA O'RGA TISH TEXNOLOGIYALARI XUSUSIDA**

**Muallif:** Atadjanova Shaxnoza Atabaevna<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Nizomiy nomli TDPU professori, ped.fan.dokt (DSc)<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14435773>

Yangi O'zbekistonni jahon hamjamiyatida munosib o'rirlarni egallahshlarida yoshlarni o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Chet til bunday ishlarni amalga oshirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chet tilni o'zlashtirish orqali o'zga davlat tilini, madaniyatini o'rganibgina qolmay, o'zlari tanlagan yo'nalishlari boyicha ham malakaga ega bo'lism imkoniyati ham kattadir. Shunga binoan bugungi mutaxassis birorta chet tilni mukammal egallagan bo'lishi talab etilmoqda. Chet til bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlash tizimida muhim tarkibiy qismlardan biri maqomini egalladi va oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining umumiyl madaniyatini rivojlantirishda, kamida 2 ta chet tilini egallahni taqozo etadi [1].

Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Shaxsiy shijoat tashqi ijtimoiy, shu jumladan maqsadga yo'naltirilgan ta'lim -tarbiya muhitlarining ta'siri ostida kichadi. Xususan ,chet til ta'limi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda fan o'qituvchisidan mohirlik talab etiladi. Oliy ta'lim o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish , uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Kasbga yo'naltirish- jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tehsil oluvchiga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishning ta'limiy -ma'rifiy jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Chet tilda nutqiy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Chet til o'quv predmetini o'rganish shu til yordamida axborot olish va boshqalarga etkazish ma'nosini bildiradi. O'zlashtirilgan axborotlar talabalarning bilim saviyalarini yanada oshirishdan tashqari ularning kasbiy malakalarini shakllantirishga hamda rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Ma'lumki, mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rinn tutadi. Bir qator tadqiqotchilar fransuz tilini o'rgatishda mashqlarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydilar. Mashqning samarali bo'lishi uchun unga ongli yondashish, sharoitni inobatga olish hamda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni anglash va tuzatish kerak bo'ladi. Chet til o'qitish-o'rganishning eng asosiy usullaridan biri og'zaki va yozma mashqlar bajarishdir. Mashq deganda, til hodisalariga oid bilimlarni egallah, leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va ularni nutq vaziyatida to'g'ri qo'llash tushuniladi. Kasbiy malakalarini shakllantirishda hamda rivojlantirishda u yoki bu usulni qo'llash darsning maqsadiga, o'quv materialining mazmuniga, talabalarning yosh xususiyatlari, ta'lim bosqichi va tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Mashqlar talaffuz, leksik, grammatik, gapishtish, tinglab tushunish, fikrni yozma bayon qilishga o'rgatuvchi turlarga bo'linadi. Bugungi kunda chet til o'qitishda/o'rgatishda SEFR dasturi talablariga ko'ra tinglab tushunishga,o'qishga,yozuvga va gapishtishga alohida ahamiyat berilgan.

Demak,mashq o'qitish usulining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, busiz nutqiy ko'nikmalarining shakllanishi mumkin emas. Bu borada pedagogik texnologiyaga tayangan holda fransuz tili darsini tashkillashtirimiz o'ta dolzarb masaladir deb hisoblaymiz.

Chet til ta'limi jarayonida talabalarga tilni o'zlashtirishga yaqindan yordam berishga xizmat qiladigan qator innovatsion texnologiyardan foydalanish ta'lim samaradorligiga olib keluvchi muhim omillardan birdir. Tajribamizga ko'ra ,bunday usullaridan biri talabalarga o'zlar o'rganib kelayotgan davlatning mashhur kompozitorlari , xonandalarining kuy va qo'shiqlarini birlgilikda o'rganib borilishidir. Shuningdek fransuz shoirlarinig sherlarini ham o'z o'rniда o'rganib borishlari ularning tilga bo'lgan motivatsiyasini oshishiga sabab bo'ladi. Chunki yaxshi ashula yoki sher har qanday inson qalbida mehr,muhabbat tuyg'usini uyg'otishi tabiiydir. Biz ta'lim jarayonida talabalarga fransuz yozuvchi shoirlarinig she'rlari va ashulalarini o'rgatib boramiz.Natijada ularda tilga nisbatan qiziqishlari oshishi hamda ta'lim samaradorligiga olib keluvchi muhim omillardan ,texnologiyalardan ekanligini ko'p yillik tajribamizdan kuzatib kelmoqdamiz. Masalan : Fransuz tilidagi ashulani tinglang va kuylang. Ecoute et chante.

### SALUT

Salut, c'est encore moi

Salut, comment tu vas?

Le temps ma paru tres long

Loin dela maison

J'ai pensai à toi .....

Tajribaga ko'ra ,talaba fransuz qo'shiqchisi Djo Dassin qo'shig'ini o'rganish natijasida ularni so'z boyligi hamda tilga bo'lgan motivatsiyasi ham oshishi ma'lum bo'ldi. Aslida ashula miyaning ishlash qobiliyatini faollashtiradi. Bunday texnologiya nafaqat talabaning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi balki tinglab tushunishni o'rganish, leksik-grammatik materialni eslab qolish, talaffuzni egallahsha yaxshi samara beradi. Qo'shiq,tilni o'rganishga to'g'ri talaffuz qilishga yaqindan yordam beradi. Qo'shiq orqali talabaning yangi so'zlarni eslab qolishini va so'z boyligini oshishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning og'zaki nutqini rivojlanishiga yaqindan yordam beradi.

Talabalar mazkur mashqni bajarish davomida umumiyoq qobiliyatga xos bo'lgan idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, iroda va hissiyotga oid xususiyatlar va maxsus qobiliyat sifatida mavjud ijtimoiy sharoitdag'i o'ziga xos shakllardan foydalandilar.

Bundan shunday hulosaga kilishimiz mumkinki, har qanday maqsadga erishishimizda xususan chet tilni amaliy o'rganish uchun mashqlar tizimidan foydalanish biz ko'zlagan maqsadga erishishimizda samara beradi. Kuzatishlarga ko'ra, ona tilida nutqi rivojlanmagan talabalar chet tilni yaxshi o'zlashtira olmaydilar. Til materiali asosida nutq faoliyati amalga oshiriladi, ya'ni ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Xususan, talabaning nutqi, idroki va tafakkuri kabi psixik jarayonlar o'zaro uzviy shakllanadi. So'z va nutq tafakkurning eng asosiy qurolidir. Chet (fransuz) til ta'limi jarayonida shaxsning aqliy faoliyatida nutqiy tafakkur hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Nutqni mashq qilish chet til nutqini shakllantirish va o'stirishda katta rol o'ynovchi faktor- bu tilni "his etish" yoki "tushunib yetish" ni takomillashtirishga erishishga yo'l ochadi. Talabalarga chet til o'qitish o'rgatishda psixologik -pedagogik shart -sharoitlar emotsional ta'sir ko'rsatadi, chunki "hissiyotga bizning idrokimizning yaqqolligi va mukammalligi bog'liq bo'ladi, ular eslab qolish tezligi va puxtaligiga ta'sir ko'rsatadi "hissiyot tafakkur protsesslarini ixtiyorsiz aktivlashtaradi, kuchaytiradi yoki aksincha susaytiradi" deb ta'kidlaydi J.J.Jalolov (4).

Tilni his etish ilgari egallangan malakalar, bilim va tajriba natijasi sifatida tushunaladigan til instruksiyali formada namoyon bo'ladi. Tilni his etish nutqni idrok etishni, tushunishni va shu tilda gapirishni yengillashtiradi. Til bilimiga murojaat qilmasdan mazkur nutq situatsiyasiga monand til vositalarini reflektor tezlikda tanlash (topish)ga imkon beradi. Demak, o'rganilayotgan tilda kasbga yo'naltirilgan nutq malakalarini shakllantirish uchun talabada tegishli bilim va tilni alohida his etish asosida paydo bo'lgan ma'lum ko'nikmalar bo'lishi shart. Tillarni ongli o'rganishni nutq mashqlarini kunda bajarish bilan qo'shib olib borilgandagina yetarli samaradorlikka erishiladi. Modomiki nofilologik oliy ta'lrim muassasalari tlabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda chet til muhim vosita vazifasini o'tar ekan, natijada bo'lajak sohalari bo'yicha o'rganilayotgan chet tilda muloqot qila olish malakalarini egallashlari talab etiladi.

K.G. Markvardning fikricha, "Ta'lrim jarayoni fikrlash va malaka hosil qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, faqat ana shundagina yaxshi natijalarga erishish mumkin" (2). Biz ham K.G. Markvardning fikriga qoshilgan holda , chet til o'qitish jarayonida talabalarning refleksif kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksif kompetentlik kasbga oid vaziyatlarga to'liq kirishish va va "moslashish ", muammoli masalalarni hal qilish , bo'lajak mutaxassislarni yangicha fikrlash faoliyatiga jalb qilish uchun shart -sharoitlarni vujudga keltiradi. Bu esa bo'lajak kadrlarni etuk mutaxassis bo'lib etishishlarida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy majlisи murojaatnomasi//Pravda vostoka., 2017 yil 23 dekabr. -№ 248(28706) –B.2.

K.G. Markvard Initial Teacher Training in Universities of England. – London, 1988–250 p.

Atadjanova Sh.A.Chet til ta'limdi talabalar kasbiy malakasini shakllantirish metodikasi. Monografiya T-2016.

J.J.Jalolov.Chet til o'qitish metodikasi. T-2012.